



**Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbek xalqining Janubiy Ural,
Sibir viloyatlarida Mehnatga safarbar qilinishi
(1941-1945-yillar)**

Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li

“Shon-sharaf” davlat muzeyi kichik-ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1941-1945-yillarda O'zbekiston aholisining mehnatga safarbar qilinishi, Davlat Mudofaa Qo'mitasi hamda Respublika rahbariyatining mehnat safarbarligi borasida ko'rgan chora tadbirlari, xalqimizning frontdagi mehnati ma'salalari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston, mehnat safarbarligi,

O'rta Osiyo harbiy okrugi, Xotira va Qadrlash kuni.

Xalqimizning qadr qimmatini, or-nomusini, milliy an'nalalarimiz hamda urf odatlarimizni himoya qilib kelgan mard va jasur ota bobolarimizning xotirasini abadiylashtirish, 1941-1945-yillardagi urush davrida jasorat, mardlik va matonat ko'rsatgan urush va mehnat fronti faxriylarining xolidan habar olish, yosh avlodimizni Vatanga daxldorlik ruhida tarbiyalash, yurtimiz o'g'lonlarining mamlakatimiz tinchligi va mustaqilligi uchun bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi kurashda mardlik hamda jasorat ko'rsatgan, butun dunyoda ko'plab begunoh



insonlarning halok bo'lishiga Ikkinchi jahon urushida 1,5 milliondan ortiq kishi halok bo'lganini xalqimiz hech qachon yodidan chiqarmaydi ¹.

XX asr dunyo tarixida o'chmas iz qoldirdi, insoniyat tarixidagi eng yirik harbiy to'qnashuv - Ikkinchi jahon urushi 1939-1945-yillarda bo'lib o'tib unda 62 ta davlatni o'z domiga tortgan, urushga tortilgan davlatlarda qariib dunyo aholisining 80% i istiqomat qilgan, urush harakatlari YevroOsiyo, Afrika hamda Tinch okeyan havzalarida olib boriladi, urushda ikki harbiy koalitsiya Fashistik davlatlar ittifoqi (Germaniya, Italiya va Yaponiya) hamda ittifoqchilar (Buyuk Britaniya, AQSh, SSSR, Xitoy) to'qnash keladilar².

Urushning boshlanishi (1939-1941-yillar) bunda Germaniya 1939-yil 1-sentyabr kunida Polshani bosib oladi, Italiya esa urushga kiradi hamda Germaniya esa Gretsiya va Yugoslaviya, Fransiyaning ishg'ol qiladi. Buyuk Britaniya va Germaniya o'rtasida urush harakatlarining amalga oshirilishi bilan ifodalanadi, Buyuk Britaniya Bosh vaziri Uinston Cherchill Germaniyaga bo'ysunishdan bosh tortadi, shunda Germaniya o'zining harbiy- dengiz floti kuchi bilan Buyuk Britaniyani bir yoqli qilishga bel bog'laydi³.

1940-yil 15-avgust kunida Germaniyaning harbiy havo kuchlari Buyuk Britaniyani bombardimon qilishga kirishdi, biroq Buyuk Britaniyaning harbiy –havo kuchlari Germaniyanikidan qolishmas edi, shuningdek 1941-yil AQSh Kongressi tomonidan “Mudofaasi muhim davlatlarga Lend-lizz asosida harbiy va iqtisodiy yordam ko'rsatish to'g'risida qonun qabul qiladi, shuningdek Buyuk Britaniyaning mudofaasi Amerika Qo'shma Shtatlarining qo'shma manfaatlari yo'lida xizmat qiladi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-aprel kunidagi PQ-3667-sonli “Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora tadbirlari to'g'risida”gi qaroridan \ <https://mobile.lex.uz>

² Лидель Гарт Б. Вторая мировая война.- Москва.: АСТ. 2003. С. 245-457

³ Lafasov M.F. Jahon tarixi (1918-2008-yillar) .-Toshkent.: “Turon Iqbol “ 2016. B. 145



Buyuk Britaniyani mag'lubiyatga uchrata olmagach endi Germaniya SSSRni bosib olishga kirishdi ⁴.

Fashistlar Gaermaniyasining SSSR ga 1941-yil 22-iyun kunida bostirib kirishi munosabati bilan ommaviy safarbarlik e'lon qilindi shu kuni SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining farmoni e'lon qilindi shu farmondan kelib chiqqan holda 1905-1918-yillarda tug'ilgan harbiy xizmatga majbur fuqarolarni mehnatga safarbar qilish ishlari amalga oshirila boshlanadi, shuningdek Kommunistik partiya va Sovet hukumatining o'z vaqtida ko'rgan chora tadbirlari mamlakat hayotining barcha jabhalarini harbiy izga tushirdi, shu kuni VKP (b) MQ va SSSR Xalq Komissarlari Kengashining “ harbiy xizmat to'g'risida”, “ harbiy xizmatga majbur bo'lganlarni Qizil Armiya saflariga yuborish haqida” hamda “harakatdagi armiyani oziq-ovqat bilan ta'minlash haqida”gi qarorlari qabul qilinadi va hayotga tadbir qilinadi ⁵. Shuningdek SSSR tarkibiga kirgan respublikalar, xalqlar va muxtor okruglar jumladan O'zbekiston xalqlari ham urushga otlandilar, O'zbekiston xalqlarining boshiga og'ir kulfatlar tushdi, urush boshlanganligi haqidagi shum xabar kelishi bilanoq O'zbekistonning barcha shahar, tuman va viloyatlarida mitinglar bo'lib turdi, ularda dushman ustidan g'alaba qozonish ma'salasi ko'tarildi⁶.

Murakkab siyosiy vaziyatda 1941-yil 29-iyun kunida SSSR Xalq Komissarlari Kengashi va VKP (b) MQ “Frontorti hududlaridan sanoat korxonalari va aholini Sharqqa ko'chirish haqida dekkretni qabul qiladi, shuningdek mamlakatdagi barcha siyosiy iqtisodiy va harbiy hayotga rahbarlik qilish uchun 1941-yil 30-iyun kunida VKP (b) MQ Bosh kotibi va SSSR Xalq Komissarlari Kengashi raisi Iosif Stalin boshchiligida SSSR Davlat Mudofaa Qo'mitasi tashkil qilinadi, harbiy harakatlarni

⁴ Компьеев А.В. Битва за Британию в Отечественной Историографии Москва 2010 С. 345

⁵ Ветте В. Война на уничтожение человечество \ \ Ветмахт и холокост. Скеписис, 1997

⁶ Sharopov A. O'zbekiston tarixi Universal qo'llanma Toshkent Akademnashr 2013 B. 165



boshqarish uchun SSSR Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonlik qarorgohi tashkil qilinadi va Stalin SSSR Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni hamda SSSR Mudofaa Xalq Komissari etib tasdiqlanadi, haqiqatda barcha harbiy siyosiy ma'salalarni hal etish unga topshirilgan⁷. Urush yillarida respublikaga rahbarlik qilib kelgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi Usmon Yusupov o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurash ishlariga bosh qosh bo'ladi, shuningdek o'sha davrda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi raisi lavozimida Yo'ldosh Oxunboboyev hamda O'zbekiston SSR hukumati –Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimida Abdujabbor Abdurahmonov faoliyat yuritganlar va dushman ustidan qozonilgan g'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shganlar⁸. 1926-yil 4-iyun kunida esa O'rta Osiyo harbiy okrugi (CABO) tashkil qilingan, okrug shtabi va uning asosiy tuzilmalari Toshkentda joylashgan, urush yillarida O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy qismlari mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga, davlatning sharqiy chegaralarini himoyalash ishlari bilan shug'ulangan va SSSR Mudofaa xalq komissarligiga bo'ysungan⁹.

Tarixiy sharoitda O'zbekistonda mehnat safarbarligi Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq, bu davrda SSSRning boshqa hududlarida keskin ravishda ishchi kuchi tanqisligi vujudga kela boshlagan bir davrda Respublikaning mehnatga layoqatli aholisi respublika hududidagi boshqa viloyatlardagi sanoat korxonalari, qurilish obyektlari, qishloq xo'jaligi sohalariga safarbar qilina boshlandi, tarixiy kontekstdan olsak 1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonda mudofaa

⁷ Московский комсомолец \ под ред А. Гончарова \ <https://mrs.ru>

⁸ O'zbekiston tarixi 2-kitob (1939-1991) Toshkent O'zbekiston 2019.-B. 135

⁹ Мельтухов М.И. Милябах В.С. СреднеАзиатский Военный округ в годы Великой Отечественной войны.- Москва.: АСТ. 2024.-С 632



sanoati va qishloq xo'jaligining ehtiyojlarini qondirish uchun yoppasiga ishchi kuchini yo'llash ishlari amalga oshirila boshlanadi¹⁰.

Ishchilarni yo'llashda esa : Muddatli harbiy xizmatga chaqirilayotgan erkaklar turli sohalarda jumladan sanoat, qishloq xo'jaligida mehnat qilganlar, shuni ma'lumot o'rnida qayd etish kerakki mamlakat mudofaasini ta'minlashda majburiy mehnatga safarbar qilinganlar, ma'lumot o'rnida qayd etish kerakki 1942-1944-yillarda O'rta Osiyodan jumladan O'zbekistondan 300 000 kishi majburiy ravishda mehnatga safarbar qilina boshlandi¹¹.

1942-yil 14-oktyabr kunida SSSR Davlat Mudofaa Qo'mitasi O'rta Osiyo harbiy okrugidan 350 000 kishini safarbar qilish haqida qaror qabul qilinadi, shuningdek ularni ishga olish va ish bilan ta'minlash uchun Davlat Mudofaa Qo'mitasining maxsus komissiyasi tuziladi, bu komissiyaning birinchi majlisida 250 000 kishini Janubiy Ural va Sibirga yuborish ma'salasi kun tartibiga qo'yiladi, shunda O'zbekiston SSR dan 49,6 %, Qozog'iston SSR dan 21,1 %, Tojikistondan 11,9 hamda Qirg'iziston va Turkmanistondan 87 % erkaklar Ural va Sibir hududlarida mehnat qilish uchun yuborilganligi qayd etiladi¹². 1943-yilga kelib O'rta Osiyo harbiy okrugidan Janubiy Ural va Sibir hududlarida safarbar qilinganlar o'rtasida keng qamrovda siyosiy tashviqot ishlari amalga oshirila boshlandi, okrugdan safarbar qilinganlar orasida amalga oshirilgan siyosiy ishlarda Davlat

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr kunidagi PQ-4495-sonli "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qaroridan \ \ <https://mobile.lex.uz>

¹¹ Babadjanov X.B. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda Oziq-ovqat siyosatining amalga oshirilishi.- Toshkent.: Akademnashr, 2022.-B 5-18

¹² Гончаров Г.А. Мобилизация Советских граждан в годы Великой Отечественной Войны 1941-1945 гг Москва АСТ 2016 –С 642



Mudofaa Qo'mitasining qarorlariga binoan SSSR Ichki ishlar Xalq Komissarligi mehnat safarbarligini o'tkazishga ma'sul organ etib belgilanadi¹³.

Xulosa

Ikkinchi jahon urushi (1939-1945-yillar) butun dunyoni larzaga solgan va ko'plab begunoh insonlarni halok bo'lishiga olib keladi, urushning ilk kunlaridanoq butun Sobiq Ittifoqda xususan O'zbekistonda ommaviy ravishda safarbarlik e'lon qilinadi. Davlat Mudofaa Qo'mitasining mehnat safarbarligi borasida qabul qilingan qarorlari mamlakatdagi mahalliy aholi vakillarini majburiy ravishda mehnatga safarbar qilishga olib keladi.

Xususan urush yillarida O'rta Osiyo harbiy okrugi davlat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlashda munosib hissa qo'shadi, shuningdek 1942-1944-yillarda Davlat Mudofaa Qo'mitasining tegishli qarorlaridan kelib chiqqan holda O'rta Osiyo xususan O'zbekistondan 300 000 kishini Ural va Sibir hududlariga safarbar qilingan, ma'lumotlarga qaraganda 1943-1944-yillarda urushda tub burilish yasalgach va fashizm ustidan g'alaba qozonilgach ko'plab Vatandoshlarimiz o'z yurtlariga qaytdilar hamda buyuk G'alabaga o'zlarining munosib hissa qo'shdilar.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda 9-may "Xotira va Qadrlash kuni" munosabati bilan aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi uchun bugungi dorilamon kunlarga yetib kelish uchun jonlarini qurbon qilgan yurtdoshlarimizning xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodimizni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Ikkinchi jahon urushidan omon qaytgan ota-bobolarimiz xolidan habar olish biz uchun ham farz ham qarzdir. Zotan bugun butun dunyoda global xavf –xatarlar kuchaygan va mintaqalarda qonli mojarolar bo'lib turgan bir vaqtda biz

¹³ Шмыров Б.Д. Политико-массовая работа среди трудомобилизованных Средне Азиатского Военного округа 1943-1944-годы.- Санкт Петербург.: АСТ, 2017.-С 624



O'zbekistonimizning mustaqilligini mustahkamlamog'imiz hamda tariximizning no'malum saxifalarini har tomonlama o'rganmog'imiz lozimdir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-aprel kunidagi PQ-3667-sonli "Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr kunidagi PQ-4495-sonli "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligini o'tkazish chora tadbirlari haqida"gi qarori
3. Sharopov A. O'zbekiston tarixi Universal qo'llanma.- Toshkent Akademnashr, 2013
4. Saipova K.D. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston Mehnat armiyalarining vujudga kelishi.- Toshkent O'zbekiston, 2017
5. Babadjanov X.B. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda oziq-ovqat siyosatining amalga oshirilishi Toshkent Akademnashr, 2022
6. Лидель Гарт Б. Вторая мировая война.- Москва АСТ 2003
7. Мельтухов М.И. Упущенный шанс Сталина.- Санкт Петербург 2005
8. Компьеев А. Битва за Британию .- Санкт Петербург Москва 2024
9. История Великой Отечественной войны 1941-1945-гг Москва АСТ. 2028
10. Гончаров Г.А. Мобилизация Советских граждан в годы Второй мировой войны (1941-1945-гг) .- Екатеринбург.: Алпина, 2006
11. Гончаров Г.А. Трудомобилизованные СреднеАзиатского Военного округа в Урале Москва АСТ, 2016
12. Шмыров Б. Политическая работа среди Трудомобилизованных САВО на Южном Урале Москва АТ, 2009